

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGANINING 33 YILLIGI MUNOSABATI BILAN TABRIK



Aziz do'stlar, qadrli ustozlar
va hurmatli talabalar!

Sizlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun bilan samimiy muborakbod etaman!

Darhaqiqat, Yangi O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklarining va yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning mustahkam huquqiy asosi bo'ldi.

Jumladan, Konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilib, ular soni 128 tadan 155 taga oshdi, normalar soni 275 tadan 434 taga ko'paydi, ya'ni Konstitutsiyamiz 65 foizga yangilandi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, «Konstitutsiyamiz mamlakatimizda milliy mustaqilligimizni mustahkamlash, tinchlik va barqarorlik, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni saqlash, islohotlarimizning ortga qaytmas tus olishini ta'minlashda doimo ishonchli kafolat bo'lib kelgan va bundan buyon ham shunday bo'lib qoladi».

Aziz do'stlar!

Bosh Qomusimizda belgilab berilgan huquq va erkinliklarimiz hamda burchlarimiz asosida

Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga o'z hissamizni qo'shish barchamizga nasib etsin!!!

Nodirbek Sayfullayev,
O'zbekiston davlat san'at
va madaniyat instituti
rektori, professor.